



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

"Korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash choralari"

Umumiy o'rta ta'lim maktab 11-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari

Davlat korrupsiyaga qarshi qanday kurashadi?

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muayyan huquqiy asoslar, davlat siyosati va tashkiliy mexanizmlar shakllantirilgan. Ushbu tizim bir necha muhim ustunlarga asoslanadi.

Konstitutsiya

Davlat boshqaruvining asosiy prinsiplari, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarining kafolatlari hamda davlat organlarining fuqarolar oldidagi mas'uliyatini belgilaydi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning vazifalari ko'rsatilgan.

Davlat dasturlari

Korrupsiyaga qarshi kurashishni amaliy jihatdan tashkil etishga xizmat qiladi: davlat organlari faoliyatini takomillashtirish, ochiqlikni oshirish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish.

Korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy yo'nalishlari

Qonunchilikni takomillashtirish


Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilanadi. Manfaatlarni to'qnashuvining oldini olish tartiblari ishlab chiqiladi. Davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalari mustahkamlanadi — mansabdor shaxslarning vakolatlarini suiiste'mol qilishiga yo'l qo'ymaslik maqsad qilinadi.

Ochiqlik va shaffoflik

Davlat organlari o'z faoliyati, qabul qilayotgan qarorlari, xarajatlari, davlat xaridlari va ko'rsatilayotgan xizmatlar haqida aholiga ochiq ma'lumot berishi shart. Ochiqlik mavjud bo'lgan joyda yashirin kelishuvlar, noqonuniy qarorlar va mansab vakolatini suiiste'mol qilish imkoniyati keskin kamayadi.


Raqamlashtirish

Elektron davlat xizmatlari orqali fuqaro va mansabdor shaxs o'rtasidagi bevosita aloqa kamayadi. Bu pora so'rash va hujjatlarni sun'iy kechiktirish holatlarining oldini oladi.



Raqamlashtirish — korrupsiyaga qarshi kuchli qurol

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish korrupsiyaga qarshi eng samarali vositalardan biridir. my.gov.uz elektron hukumat portali orqali ko'plab xizmatlar onlayn ko'rinishga o'tkazildi.



Raqamlashtirish nima beradi?

- Arizalarni onlayn topshirish imkoniyati
- Davlat xizmatlarini elektron navbat asosida olish
- To'lovlarni elektron amalga oshirish
- Hujjatlar holatini internet orqali kuzatish

Natijalar

- Inson omili kamaydi
- Shaffoflik keskin oshdi
- Pora berish imkoniyati pasaydi
- Fuqarolar uchun qulaylik yaratildi

AMALIY MISOLLAR

Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarning amaliy ko'rinishlari



📌 Raqamlashtirish orqali korrupsiya oldini olish

Oldin odamlar ma'lumot olish uchun turli idoralarda navbat kutib, hujjat topshirardi. Bu jarayonlarda mansabdor shaxslar qo'shimcha haq talab qilardi. Bugungi kunda ko'p xizmatlar **my.gov.uz** elektron hukumat portali orqali raqamlashtirildi.

Natija: inson omili kamaydi, shaffoflik oshdi, pora berish imkoniyati keskin pasaydi.

📌 "Korrupsiyaga qarshi kurash" targ'ibot kampaniyasi

O'zbekiston hududida oliy ta'lim muassasalari, maktablar va jamoat joylarida huquqiy targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Maqsad — yoshlarni va fuqarolarni korrupsiya oqibatlarini va uning yomon ta'siri haqida xabardor qilish.

Natija: jamiyatning huquqiy madaniyati oshdi, fuqarolar korrupsiya holatlarini xabar berishga tayyor bo'lishdi.



📌 Davlat organlarida ichki monitoring

Ba'zi idoralarda ichki audit va monitoring tizimi yo'lga qo'yildi. Tizim korrupsiya xavfi bo'lgan joylarni aniqlaydi va profilaktika choralari ko'radi.

Natija: korrupsiya holatlari erta bosqichda aniqlanib, xalqaro talablar bo'yicha bartaraf qilinmoqda.

Fuqarolar bilan ishlash va huquqiy targ'ibot

Profilaktika ishlari nima uchun muhim?

Korrupsiyaga qarshi kurashishda profilaktika va huquqiy targ'ibot ishlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Davlat organlari, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlari fuqarolarga korrupsiyaning zararli oqibatlarini tushuntiradi, halollik, qonuniylik va adolat tamoyillarini targ'ib qiladi.



Ayniqsa, **yoshlar orasida** korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Fuqarolar murojaatlari tizimi

Agar fuqaro pora talab qilish, tanish-bilishchilik, asossiz rad etish yoki boshqa adolatsizlik holatiga duch kelsa, u vakolatli organlarga murojaat qilishi mumkin. Bunday murojaatlar korrupsiya holatlarini aniqlash va ularning oldini olishga yordam beradi.

- Pora talab qilingan holda murojaat qilish huquqi
- Tanish-bilishchilik holatlarini xabar berish
- Asossiz rad etish faktlarini bildirish
- Boshqa adolatsizlik holatlarini oshkor etish

PROFILAKTIKA VA TARG'IBOT



Qaysi huquqni muhofaza qiluvchi organlar korrupsiyaga qarshi kurash olib boradi?

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Korrupsiya jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiyot rivoji va qonun ustuvorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgani sababli unga qarshi bir nechta davlat organlari **hamkorlikda** faoliyat olib boradi.



Prokuratura organlari

Asosiy vazifasi

Prokuratura organlari korrupsiyaga qarshi kurashishda markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Ular korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va aybdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish bilan shug'ullanadi.

Prokuraturaning vakolatlari

- Qonunlarning aniq va bir xil ijro etilishi ustidan nazorat
- Mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlarini tekshirish
- Davlat organlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash
- Tergov jarayonining qonuniyligini ta'minlash
- Korrupsiyaga olib keluvchi sabab va sharoitlarni o'rganish
- Bartaraf etish yuzasidan taqdimnoma va ko'rsatmalar kiritish



Ichki ishlar vazirligi

◆ Ichki ishlar vazirligi (IIV)

IIV va uning hududiy bo'linmalari jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni aniqlashda faol ishtirok etadi.

- Korrupsiyaga oid noqonuniy harakatlarni aniqlash
- Tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish
- Poraxo'rlik, tovlamachilik va mansab vakolatini suiiste'mol qilishni fosh etish
- Boshqa organlar bilan hamkorlikda maxsus tadbirlar o'tkazish
- Fuqarolar murojaatlari asosida korrupsiya holatlarini tekshirish

Davlat xavfsizlik xizmati

◆ Davlat xavfsizlik xizmati (DXX)

DXX davlat manfaatlari, milliy xavfsizlik va strategik muhim sohalarni himoya qilish bilan shug'ullanadi. Davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi korrupsion holatlarni aniqlash va oldini olish vazifasini bajaradi.

- Strategik tarmoqlar ustidan maxsus nazorat
- Mudofaa va xavfsizlik sohasidagi korrupsiyani aniqlash
- Davlat sirlariga oid tizimlarda nazorat
- Yirik moliyaviy va investitsion loyihalarda tekshiruv

◆ Davlat soliq qo'mitasi

Moliyaviy intizomni ta'minlash va iqtisodiy huquqbuzarliklarning oldini olish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etadi.

- Noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni aniqlash
- Yashirin daromadlar va soliqlardan bo'yin tovlashni tekshirish
- Budjet mablag'laridan foydalanish qonuniyligini o'rganish

◆ Korrupsiyaga qarshi Milliy kengash

Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatini muvofiqlashtiruvchi muhim organ. Strategik yo'nalishlarni belgilash va davlat dasturlarini monitoring qilish bilan shug'ullanadi.

- Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatini shakllantirish
- Profilaktika choralari ishlab chiqish
- Davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish

◆ Ombudsman

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili — Ombudsman korrupsiya oqibatida fuqarolarning huquqlari buzilgan hollarda murojaatlarni ko'rib chiqadi.

- Fuqarolar shikoyatlarini qabul qilish
- Davlat organlari faoliyatini o'rganish
- Buzilgan huquqlarni tiklashga ko'maklashish

Tashkilotlar darajasida korrupsiyaga qarshi amaliy chora-tadbirlar

Korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat davlat darajasida, balki har bir tashkilot, muassasa va korxonada ham olib borilishi zarur. Tashkiliy darajadagi choralar davlat mexanizmlarini to'ldiradi va korrupsiyaviy xavflarni erta bosqichda aniqlashga yordam beradi.

1

Xavf aniqlash

Korrupsiya xavfi mavjud bo'lgan soha va jarayonlarni aniqlash

2

Tizim joriy etish

Ichki nazorat, audit va anonim murojaat tizimlarini yaratish

3

Xodimlarni o'qitish

Etik kodeks, treninglar va mas'uliyatni oshirish

4

Monitoring

Doimiy kuzatuv, tekshiruv va natijalarni baholash



Tashkilotlarda amaliy misollar

1

Oliy ta'lim muassasasida profilaktika

Ba'zan talabalardan laboratoriya ishlarini yoki imtixon bahosini "tezlashtirish" uchun noqonuniy talablar yuzaga kelishi mumkin. Universitetda maxsus monitorlar qo'yildi va adolatli baholash mexanizmi joriy etildi.

Natija: talabalarda adolatli baholanishga ishonch oshdi, korrupsiyaga asos bo'luvchi holatlar kamaydi.

2

"Shikoyat va takliflar qutisi" tizimi

Davlat idoralari va mahalliy boshqaruv organlarida shikoyatlar qutisi hamda onlayn ariza berish jarayoni joriy etildi. Fuqarolar anonim tarzda samarali xabar berish imkoniga ega bo'ldi.

Natija: korrupsiya holatlarini oshkor etish qobiliyati oshdi va tezkor tekshiruv imkoniyati yaratildi.

3

Bank xizmatlarida shaffof raqamli xizmatlar

Avval bank tizimida ayrim xizmatlar oflayn tartibda bajarilardi, bu mansabdor shaxslar tomonidan noqonuniy to'lov talablari uchun imkoniyat yaratardi. Elektron xizmatlar joriy etildi: onlayn ariza yuborish, xizmat holatini kuzatib borish.

Natija: korrupsiya xavfi keskin kamaydi.

1-Keys: Davlat korrupsiyaga qarshi qanday kurashadi?

Vaziyat: Davlat xaridlari portali orqali umumta'lim maktablari uchun kompyuter jihozlari sotib olish bo'yicha tender e'lon qilindi. Tender shartlariga ko'ra, xarid jarayoni elektron platforma orqali ochiq va shaffof tarzda o'tkazilishi, barcha ishtirokchilarga teng imkoniyat yaratilishi kerak edi. Biroq tender talablarida g'ayrioddiy shartlar mavjudligi aniqlandi — texnik ko'rsatkichlar faqat bitta kompaniya mahsulotlariga mos kelardi.

Tahlil uchun savollar:

1. Bu vaziyatda davlatning korrupsiyaga qarshi mexanizmlari qanday ishladi?
2. Elektron tender tizimi nimaga xizmat qiladi?
3. Texnik talablarni "moslab yozish" qanday korrupsion xavf tug'diradi?
4. Nega ochiqlik va raqobat korrupsiyani kamaytiradi?
5. Agar shikoyat mexanizmi bo'lmaganida, qanday oqibatlar yuzaga kelardi?
6. Davlat darajasida korrupsiyani oldini olish uchun yana qanday tizimli choralar zarur?

Muhim tushunchalar

Manfaatlar to'qnashuvi — mansabdor shaxsning shaxsiy manfaati davlat manfaatidan ustun qo'yilishi.

Elektron tender — barcha ishtirokchilarga teng va shaffof raqobat imkonini beruvchi raqamli platform.

Shikoyat mexanizmi — fuqarolarning noto'g'ri harakatlari haqida vakolatli organlarga xabar berish imkoniyati.



Texnik talablarni oldindan tanlangan kompaniyaga "moslab yozish" — davlat xaridlarida keng tarqalgan korrupsion usul.

2-Keys: Korrupsiyaga qarshi amaliy chora-tadbirlar

Vaziyat: Haydovchilik guvohnomasini olish uchun imtihon tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Nazariy va amaliy imtihonlar to'liq videokuzatuv ostida o'tkaziladigan bo'ldi. Natijalarni baholash avtomatik elektron tizim orqali amalga oshirila boshlandi. Inson omili minimal darajaga tushirildi.

Tahlil uchun savollar:

1. Bu vaziyatda qaysi amaliy chora-tadbirlar korrupsiyani kamaytirishga xizmat qildi?
2. Nega inson omilini kamaytirish muhim?
3. Videokuzatuv va avtomatlashtirish qanday natija berdi?
4. Nega ayrim fuqarolar baribir noqonuniy yo'l izlashda davom etadi?
5. Korrupsiyaga qarshi kurashda faqat texnik choralar yetarli mi?
6. Yana qanday choralar qo'llash kerak?

3-Keys: Huquqni muhofaza qiluvchi organlar roli

Vaziyat: Yirik qurilish loyihasi doirasida davlat budjetidan katta miqdorda mablag' ajratilib, ijtimoiy obyekt qurilishi rejalashtirilgan edi. Vaqt o'tishi bilan qurilish materiali sifati pastligi, bajarilgan ish hajmlari hujjatlarga mos kelmasligi va xarajatlar sun'iy oshirilgani haqida shubhalar paydo bo'ldi. Vakolatli organlar tekshiruv boshlab, jinoyat ishi qo'zg'atdi.

01 Murojaatlar va signallar

Mahalliy aholi va mutaxassislar mablag'larning maqsadsiz ishlatilgani haqida murojaatlar beradi

02 Tekshiruv boshlash

Vakolatli organlar loyiha hujjatlari, moliyaviy hisobotlar va qurilish ishlari bo'yicha tekshiruv o'tkazadi

03 Jinoyat ishi qo'zg'atish

Mablag' o'zlashtirish, xarajatlarni asossiz oshirish va hujjatga noto'g'ri ma'lumot kiritish faktlari aniqlanadi

04 Tergov va sud

Hujjatlar o'rganiladi, guvohlar so'roq qilinadi, ekspertiza o'tkaziladi, ish sudga oshiriladi

05 Javobgarlikka tortish

Aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi

Tahlil uchun savollar:

1. Bu vaziyatda qaysi huquqni muhofaza qiluvchi organlar ishtirok etgan bo'lishi mumkin?
2. Ularning vazifalari nimadan iborat?
3. Nega korrupsion jinoyatlar alohida e'tibor bilan tergov qilinadi?
4. Dalillarni to'plash va sud jarayoni nima uchun muhim?
5. Agar bunday jinoyatlar ochilmasa, qanday oqibatlar yuzaga keladi?
6. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonch qanday shakllanadi?

4-Keys: Tashkilotlar darajasida korrupsiyaga qarshi choralar

Vaziyat: Yirik xususiy kompaniyada ayrim bo'limlarda manfaatlar to'qnashuvi va noqonuniy kelishuvlar yuzaga kelishi mumkinligi haqida shubhalar paydo bo'ldi. Ayrim xarid narxlari bozor qiymatidan yuqori ekani va ma'lum yetkazib beruvchilarga asossiz ustunlik berilayotgani aniqlandi. Rahbariyat islohotlar boshlab, ichki nazorat tizimini kuchaytirdi.



Ko'p bosqichli tekshiruv

Har bir xarid bo'yicha hujjatlar alohida komissiyalar tomonidan ko'rib chiqildi. Qaror qabul qilish jarayoniga bir nechta mas'ul xodim jalb etildi — bitta shaxsning yolg'iz qaror qabul qilishiga yo'l qo'yilmadi.



Anonim murojaat platformasi

Xodimlar noqonuniy harakatlar, manfaatlar to'qnashuvi yoki shubhali kelishuvlar haqida o'z shaxsini oshkor qilmagan holda ma'lumot berish imkoniyatiga ega bo'ldi.



Axloq kodeksi va treninglar

Barcha xodimlar uchun axloq kodeksi ishlab chiqildi: halollik, xolislik, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish qoidalari. Xodimlarga maxsus tushuntirish va treninglar o'tkazildi.

Tahlil uchun savollar:

1. Bu vaziyatda tashkilot qanday korrupsiyaga qarshi choralarni qo'lladi?
2. Manfaatlar to'qnashuvi nimani anglatadi?
3. Nega ichki nazorat tizimi muhim?
4. Anonim murojaat mexanizmi qanday foyda beradi?
5. Agar bunday choralar bo'lmasa, qanday xavflar yuzaga keladi?
6. Tashkilot darajasida korrupsiyani oldini olish davlat choralari qanday to'ldiradi?

Korrupsiyaga qarshi kurashning to'rt asosiy yo'nalishi



Korrupsiyaga qarshi samarali kurash uchun faqat bitta yo'nalish yetarli emas. **Qonunchilik, shaffoflik, nazorat va tarbiya** — bu to'rtta yo'nalish birgalikda ishlagandagina haqiqiy natija beradi. Har bir yo'nalish o'zaro bog'liq va bir-birini mustahkamlaydi.

Xulosa: Korrupsiyaga qarshi kurash — barchaning vazifasi

Davlat

Qonunlar qabul qiladi, nazorat qiladi, jazolaydi va raqamlashtiradi

Tashkilotlar

Ichki nazorat, etik qoidalar va anonim murojaat tizimlarini joriy etadi

Fuqarolar

Korrupsiya holatlarini xabar beradi, huquqlarini biladi va himoya qiladi

Yoshlar

Murosasiz munosabat shakllantirib, kelajak jamiyatini halol quradilar

"Korrupsiyaga qarshi kurash — bu nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar ishi, balki har bir fuqaro, har bir xodim va har bir tashkilotning mas'uliyatidir."



Eslab qoling: Korrupsiyani ko'rgan joyda jim turmaslik, vakolatli organlarga xabar berish — bu vatanparvarlik va fuqarolik burchini ado etishdir.